

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

SAVDO

RAQAMLI

MARKETING

BIZNES

TADQIQOT

BRENDING

№4-SON

2025-YIL, APREL


9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN



ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbiarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otobek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

XORAZM VILOYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	9
Otajanov Umid Ablullayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	21
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA "IQTISODIYOT" YO'NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	32
Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	44
Xodjayev Anvar Rasulovich	
RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	56
Saidov Mash'al Samadovich, Soliyev Rahmatjon	
ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА	63
Голышева Е.В. , Мурадова Л.Т.	
MINTAQADA MEHNAT RESURLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	78
Kurbanov Feruz Pirnazarovich	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	87
Turopov Maqsudjon Asatillo o'g'li	
KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	97
Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	104
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
KO'SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	127
Raximov Ilyos Ikramovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	137
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	147
Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.....	157
Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH	164
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li	
ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ.....	171
Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли	
О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA’SIRI.....	178
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA’SIRINI BAHOLASH	184
Tursunova Dilnavoz Davron qizi	
О‘ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	193
Xotamov Ibodullo Sadulloyevich	
SUN’IY INTELLEKTNII ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI	204
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQARISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	210
Raximov Furqat Jalalovich	
UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH	224
Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”).....	232
Мусаева Шоира Азимовна	
SANOATDA ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	242
Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich	
QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI	250
Otaxonova Odinaxon Inomovna	
SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	260
Muratova Shohista Nimatullayevna	

MINTAQAVIY OZIYQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	270
Mirtoev Axrorbek Abdulpattovovich	
MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIKNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	278
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li	
AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO'RSATISH STRATEGIYASI.....	285
Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	293
Donayeva Feruza Burxon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI.....	302
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
MINTAQADA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	308
Sapaev Maxsudbek Karimovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIQ XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUVLARI	315
Elbaeva Muqaddas Rashidovna	
BANK AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	321
Absamatov Anvar Ergashevich	
LOGISTIKADA OMBORXONA XO'JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	329
Boymatov O'tkirbek Tilovmurod o'g'li	
MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	336
Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI	352
Mutalova Malika Saydullayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR	359
Norboyev Sarvar Azodovich	
MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	365
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH.....	375
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	384
Tashnazarov Sur’atjon Abdullayevich	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY.....	389
Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich	
O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI	398
Xalimova Fayyoz Nafasovna	
O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI.....	405
Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	
KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	426
Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI.....	435
Madraximov Umirbek Muxammadovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	443
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich	
SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	451
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	461
Sultonova Xilola Jamolutdinovna	
MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	468
Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi	
MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	476
Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi	
REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI	488
Safarov Alisher Yunusaliyevich	

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR.....	500
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li	
KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI.....	514
Burxanov Aktam Usmanovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	522
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	530
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	537
Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich	
TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	545
Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	555
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	567
Xolmuratov Xolilla Sariyevich	
LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI.....	586
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ	603
Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	612
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	617
Rajabov Qurbon Sulaymonovich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	626
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	635
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	

MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	644
Jo'rayev Shermat Isroilovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	651
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQUARISHNI TASHKIL ETISH	661
Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH....	671
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI	679
Umirov Abdisalom To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	686
Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	694
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI	702
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzbek Sardor o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI	709
Ismailov Allayor Rashidovich	

HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI

Madraximov Umirbek Muxammadovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada hududlar iqtisodiy xavfsizligini baholashning xalqaro tajribalari, mavjud yondashuvlar va baholash tizimlari asosida tahlil qilinadi. Xususan, rivojlangan davlatlarning (AQSh, Germaniya, Yaponiya) hududiy xavfsizlikni ta'minlashdagi strategik uslublari, indikatorlar tizimi va raqamli monitoring mexanizmlari o'rganiladi. Baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar — yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'ati, investitsion faollik darajasi, bandlik va ijtimoiy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. O'zbekiston misolida esa hududlar iqtisodiy xavfsizligining amaldagi baholash amaliyoti va tizimiy kamchiliklari aniqlanadi. Xususan, regionlar-aro nomutanosiblik, investitsiyalarning notekis taqsimlanishi va iqtisodiy xavf omillarining yetarlicha monitoring qilinmasligi kabi muammolarga e'tibor qaratiladi. Maqola yakunida xalqaro amaliyot asosida O'zbekistonda hududiy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ular zamonaviy baholash metodologiyalarini joriy qilish, hududiy raqamli monitoring tizimini yaratish va iqtisodiy risklarni erta aniqlash mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, hududiy rivojlanish, xalqaro tajriba, baholash metodologiyasi, tizimli tavakkalchiliklar, barqarorlik indeksi, strategik nazorat, xavf omillari, raqamli monitoring, O'zbekiston iqtisodiy siyosati.

Аннотация

В статье анализируются международный опыт, существующие подходы и системы оценки экономической безопасности регионов. В частности, рассматриваются стратегические методы обеспечения региональной безопасности в развитых странах (США, Германия, Япония), система индикаторов и механизмы цифрового мониторинга. Основное внимание уделяется таким ключевым показателям, как темпы роста валового регионального продукта, уровень инвестиционной активности, занятость и показатели социальной стабильности. На примере Узбекистана выявлены существующая практика оценки региональной экономической безопасности и системные недостатки. Особо подчеркиваются проблемы межрегионального дисбаланса, неравномерного распределения инвестиций и недостаточного мониторинга экономических рисков. В завершение статьи на основе международного опыта разработаны предложения и рекомендации по укреплению региональной экономической безопасности в Узбекистане. Они направлены на внедрение современных методов оценки, создание системы цифрового мониторинга и усиление механизмов раннего выявления экономических рисков.

Ключевые слова: экономическая безопасность, региональное развитие, международный опыт, методология оценки, системные риски, индекс

устойчивости, стратегический контроль, факторы риска, цифровой мониторинг, экономическая политика Узбекистана.

Abstract

The article analyzes international practices, existing approaches, and assessment systems related to regional economic security. Specifically, it examines strategic methods, indicator systems, and digital monitoring mechanisms used to ensure regional security in developed countries (USA, Germany, Japan). The analysis focuses on key indicators such as regional GDP growth rates, investment activity levels, employment, and social stability indicators. In the case of Uzbekistan, the current practices and systemic shortcomings in assessing regional economic security are identified. Particular attention is paid to issues such as interregional disparities, unequal distribution of investments, and insufficient monitoring of economic risk factors. Based on international experience, the article concludes with recommendations to strengthen regional economic security in Uzbekistan. These include introducing modern assessment methodologies, establishing a regional digital monitoring system, and enhancing early-warning mechanisms for economic risks.

Keywords: economic security, regional development, international experience, assessment methodology, systemic risks, stability index, strategic control, risk factors, digital monitoring, Uzbekistan's economic policy.

KIRISH

Globalashuv sharoitida hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlarning hisobot va tadqiqotlarida hududiy iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiy barqarorlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda [1]. Xususan, Jahon bankining (World Bank) 2023–yildagi “Global Economic Prospects” hisobotida iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari orasida hududlararo rivojlanishdagi nomutanosibliklar va iqtisodiy resurslarning notekis taqsimlanishi asosiy xavf omili sifatida belgilangan [2]. Shuningdek, BMT Taraqqiyot dasturining (UNDP) hisobotida hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash orqali iqtisodiy inqirozlar va ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish mumkinligi ta'kidlanadi [3].

Yevropa Ittifoqining (EU Cohesion Reports) hududiy rivojlanish va xavfsizlik bo'yicha 2022–yilgi tadqiqotlarida hududlarning iqtisodiy xavfsizlik darajasini o'lchash uchun maxsus indikatorlar va monitoring tizimlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular hududlararo integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda [4]. OECDning 2023–yilda e'lon qilgan “Regional Outlook” hisobotida esa hududiy iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni erta aniqlash, monitoring qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muhimligi qayd etilgan [5]. AQSh Milliy Iqtisodiy Kengashi (NEC) tomonidan hududlar iqtisodiy xavfsizligini baholash uchun ishlab chiqilgan iqtisodiy barqarorlik indeksleri esa hozirgi kunda global tajribada keng qo'llanilmoqda [6].

O'zbekistonda hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va baholash borasida qator tashkiliy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-mart PF-5975-son “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi

Farmoniga ko'ra, hududlarda iqtisodiy rivojlanish xavflarini aniqlash va ularga tezkor javob berish mexanizmini shakllantirish vazifasi belgilangan [7]. Shuningdek, 2023–yilda ishlab chiqilgan “Hududiy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi” loyihasida xavfsizlikni baholashda zamonaviy raqamli monitoring tizimlarini joriy etish va xalqaro ilg'or tajribalardan keng foydalanish tavsiya etilgan [8].

Shu bilan birga, O'zbekistonda mavjud bo'lgan iqtisodiy nomutanosibliklar, investitsiyalarning hududlar o'rtasida notekis taqsimlanishi, bandlik masalalari va infratuzilma rivojlanishidagi farqlar iqtisodiy xavfsizlikka tahdid sifatida qolmoqda. Ushbu holatlar iqtisodiy siyosatda yangi va ilmiy asoslangan yondashuvlar, xalqaro ilg'or tajribalar asosida zamonaviy indikatorlar va monitoring tizimlarini yaratishni talab etadi.

Shu sababli ushbu maqolada hududlarning iqtisodiy xavfsizligini baholash bo'yicha xalqaro amaliyot o'rganilib, O'zbekistondagi mavjud holat chuqur tahlil qilinadi hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlar iqtisodiy xavfsizligini baholash bo'yicha tadqiqotlar xalqaro ilmiy adabiyotda keng yoritilgan. Masalan, Glazyev (2020) iqtisodiy xavfsizlikning hududiy jihatlariga alohida urg'u berib, hududiy resurslar boshqaruvi va xavf-xatarlarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlagan [9]. Shuningdek, Ye. Afontsev (2021) iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhimligini qayd etib, ularni tahlil qilish uchun indikatorlar tizimini taklif qilgan [10].

G'arb ilmiy adabiyotlarida esa iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tizimli xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish metodologiyasi ko'rib chiqilgan. Masalan, Briguglio va boshqalar (2020) iqtisodiy xavfsizlikni hududlar darajasida baholash uchun maxsus barqarorlik indekslarini ishlab chiqqan va ularning samaradorligini Yevropa davlatlari misolida asoslagan [11]. Ta'kidlanishicha, iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan indekslar hududlarning iqtisodiy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, Jia va Li (2019) iqtisodiy xavfsizlikni baholashda raqamli monitoring vositalaridan foydalanishning ahamiyatini ta'kidlab, raqamli texnologiyalar iqtisodiy xavflarni erta aniqlash imkonini berishini qayd etganlar [12]. Boshqa tadqiqotda esa Hanson va boshqalar (2021) AQSh misolida hududlarning iqtisodiy xavfsizligini baholash uchun innovatsion texnologiyalar asosida risklarni boshqarish va monitoring qilish tizimini ishlab chiqishni tavsiya qilganlar [13].

Mahalliy olimlardan O'zbekiston misolida iqtisodiy xavfsizlik masalalari bilan shug'ullangan M. Saidov (2022) hududiy iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini yaratish va ularni milliy sharoitga moslashtirish masalalarini chuqur tahlil qilgan [14]. Hududlararo iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyalarini tahlil qilgan yana bir tadqiqotda M. Nuraliyev (2021) investitsiya siyosatini takomillashtirish orqali hududlarning iqtisodiy xavfsizligini oshirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergan [15].

Shuningdek, xalqaro moliya institutlari, jumladan, Jahon banki tomonidan tayyorlangan hisobotda iqtisodiy xavfsizlikni hududiy darajada ta'minlash mexanizmlari xalqaro tajriba asosida ochib berilgan. Yevropa Ittifoqining 2022–yilda chop etgan hisobotida esa hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy integratsiya va rivojlanish strategiyalarining samaradorligi ko'rib chiqilgan.

OECDning “Regional Development and Security” hisobotida iqtisodiy xavfsizlikni baholash usullari va ularning jahon miqyosida qo'llanish amaliyotlari batafsil tahlil qilingan. BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan chop etilgan hisobotda esa hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va inson taraqqiyotini yaxshilash borasidagi choralar keng yoritilgan.

Shuningdek, Xitoy tajribasida Li va boshqalar hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun davlat boshqaruvining yangi mexanizmlarini taklif qilgan va ularning samaradorligini tahlil qilganlar. Rossiya olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda esa hududlar iqtisodiy xavfsizligining indikator tizimlarini yaratish va joriy qilish usullari ishlab chiqilgan.

Ushbu keng ko'lamli adabiyotlar tahlili asosida hududlar iqtisodiy xavfsizligini baholash va ta'minlash bo'yicha xalqaro hamda mahalliy amaliyotning turli jihatlari ilmiy jihatdan ochib berilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot hududlar iqtisodiy xavfsizligini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish, tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, keng qamrovli va ko'p bosqichli tadqiqot metodologiyasiga asoslangan. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Bu yondashuv hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi omillarni yaxlit holda tahlil qilish imkonini berdi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik tahlil va ekspert baholash metodlari. Hududlarning iqtisodiy xavfsizligini baholash tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiya va takliflarni ishlab chiqishda ekspert bahosi uslubidan foydalanildi. Ekspertlar sifatida soha mutaxassislari, iqtisodchilar va davlat boshqaruvi organlari vakillari jalb qilinib, ularning fikr va tavsiyalari asosida yakuniy xulosalar ishlab chiqildi.

Hududlar iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash va ularga javob choralari ko'rish uchun monitoring va prognozlash uslublari qo'llanildi. Ushbu uslublarda yordamida iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi omillar muntazam kuzatib borildi va kelajak uchun bashoratlar ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan metodologiya orqali ishlab chiqiladigan tavsiya va xulosalar hududiy iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qaror qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda barqaror hududiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarni har tomonlama chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hududiy iqtisodiy rivojlanish sur'atlari, investitsiya oqimlari, bandlik darajasi va aholi daromadlarining o'zgarish tendensiyalarini aniqlash orqali mavjud nomutanosibliklarni bartaraf etish hamda hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Ayniqsa, iqtisodiy rivojlanishning turli ko'rsatkichlarini hududlar kesimida o'rganish orqali iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash va istiqboldagi xavflarni oldindan aniqlab, ularga samarali javob berish mexanizmlarini ishlab chiqish imkoni yaratiladi.

1-jadvalda Namangan viloyati va uning tumanlarining 2020–2025-yillar oralig'ida yalpi hududiy mahsulot (YHM), investitsiya hajmlari, aholi bandligi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad kabi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha olib borilgan ilmiy-statistik tahlillar natijalari keltirilgan (1-jadval)

1-jadval.

Namangan viloyatida 2020-2025-yillar oralig'ida yalpi hududiy mahsulot hajmi (mlrd. so'm)

Tuman/Shahar	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
Namangan shahri	11245	12680	14205	15940	17800	19860
Chust tumani	4378	4940	5510	6140	6820	7560
Pop tumani	3820	4305	4830	5415	6050	6750
Uchqo'rg'on tumani	3600	4090	4580	5135	5760	6450
Kosonsoy tumani	3220	3705	4195	4740	5350	6025
Norin tumani	2985	3420	3860	4350	4890	5485

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasining 2020-2024-yillar hisobotlari va prognoz ma'lumotlari

2-jadval.

Namangan viloyatiga 2020-2025-yillar oralig'ida jalb qilingan investitsiyalar hajmi (mlrd. so'm)

Tuman/Shahar	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
Namangan shahri	7800	9100	10550	12250	14170	16300
Chust tumani	3250	3840	4460	5130	5845	6615
Pop tumani	2900	3435	4005	4615	5275	5985
Uchqo'rg'on tumani	2650	3125	3635	4180	4780	5425
Kosonsoy tumani	2400	2845	3300	3795	4340	4935
Norin tumani	2150	2550	2975	3430	3920	4455

Manba: Namangan viloyati Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasining 2020-2024-yillar hisoboti ma'lumotlari va prognoz ma'lumotlari

1-jadval Namangan viloyati va uning tumanlarida yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmining o'sish dinamikasini aks ettiradi. Xususan, Namangan shahri yuqori ko'rsatkichlar bilan yetakchilik qilmoqda, bu esa hududiy iqtisodiy faollikning yuqoriligini anglatadi. Tumanlar kesimida ham barqaror o'sish tendensiyasi

kuzatilmoqda, biroq ayrim hududlarda — jumladan, Norin va Kosonsoy tumanlarida — o‘sish sur‘atlari boshqa tumanlarga nisbatan pastroq. Bu esa hududiy rivojlanishda nomutanosiblik mavjudligidan dalolat beradi (2-jadval).

Investitsiyalar hajmining oshishi viloyatning iqtisodiy xavfsizligi va rivojlanish barqarorligini ta‘minlovchi muhim omil hisoblanadi. Namangan shahri investitsiyalar bo‘yicha yetakchi mavqeni saqlab qolmoqda. Biroq Norin va Kosonsoy tumanlarida past investitsion faollik qayd etilgan. Bu holat hududiy iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan jiddiy e‘tiborni talab qiladi (4-jadval).

3-jadval.

Namangan viloyati aholisining 2020-2025-yillar oralig‘ida bandlik darajasi (%)

Tuman/Shahar	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
Namangan shahri	93.2	93.8	94.4	94.9	95.3	95.7
Chust tumani	90.5	91.3	92.0	92.6	93.2	93.8
Pop tumani	89.0	89.7	90.4	91.0	91.6	92.3
Uchqo‘rg‘on tumani	88.5	89.3	90.0	90.7	91.4	92.0
Kosonsoy tumani	87.8	88.5	89.3	90.0	90.7	91.3
Norin tumani	86.0	86.8	87.5	88.2	88.9	89.6

Manba: Namangan viloyati Bandlik boshqarmasining 2020-2024-yilgi hisobotlari va prognoz ma‘lumotlari

Bandlik darajasining yuqoriligi iqtisodiy xavfsizlik va barqaror rivojlanishning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Jadvaldagi ma‘lumotlar tumanlar bo‘yicha bandlikning yaxshilanayotganini ko‘rsatmoqda. Biroq Norin tumani boshqa hududlarga nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, bu holat mazkur hududda bandlikni oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini anglatadi (4-jadval).

4-jadval.

Namangan viloyatining 2020-2025-yillar oralig‘ida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad (ming so‘m)

Tuman/Shahar	2020	2021	2022	2023*	2024*	2025*
Namangan shahri	5200	5800	6450	7150	7900	8700
Chust tumani	4300	4800	5350	5950	6600	7300
Pop tumani	4050	4520	5030	5590	6200	6860
Uchqo‘rg‘on tumani	3800	4250	4720	5230	5785	6395
Kosonsoy tumani	3600	4020	4460	4940	5460	6020
Norin tumani	3400	3790	4200	4650	5140	5670

Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi 2020-2024-yilgi hisobotlari va prognoz ma‘lumotlari

Daromad ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi iqtisodiy xavfsizlikning asosiy mezonlaridan biridir. Namangan shahri yuqori daromad darajasi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Ammo Norin tumani bu ko‘rsatkich bo‘yicha past

natijalarga ega bo'lib, hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqishda ushbu omilni e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, Namangan viloyatining iqtisodiy rivojlanishida sezilarli o'sish tendensiyasi mavjud bo'lsa-da, hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklar haligacha dolzarb muammo sifatida qolmoqda. Xususan, investitsiyalar va aholi bandligi ko'rsatkichlaridagi tafovutlar, ayniqsa Namangan shahri va chekka tumanlar o'rtasidagi farqlar viloyatning umumiy iqtisodiy xavfsizligiga tahdid sifatida qaralishi kerak. Shu bois muallifning fikriga ko'ra, hududlarni teng rivojlantirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun investitsiya jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, infratuzilmani yaxshilash hamda mahalliy iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan kompleks dasturlar ishlab chiqish zarur.

Bundan tashqari, hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun bandlik darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa chekka hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish talab etiladi. Shuningdek, ta'lim va malaka oshirish dasturlarini yanada rivojlantirish, inson kapitalini sifat jihatdan yaxshilash orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga erishish mumkin. Muallifning nazarida, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi davlat dasturlari va strategiyalari hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari hamda ehtiyojlariga muvofiq tarzda ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari va tahlillar asosida quyidagi ilmiy asoslangan xulosalarga kelindi.

Birinchidan, Namangan viloyatida iqtisodiy rivojlanish sur'atlari yuqori bo'lishiga qaramay, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik hali ham mavjud. Ayniqsa investitsiya faolligi va bandlik darajasi bo'yicha tumanlararo farqlar iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solmoqda.

Ikkinchidan, investitsiyalar va infratuzilma rivojlanishida Namangan shahri yetakchilik qilayotgan bo'lsa-da, Norin va Kosonsoy kabi tumanlarda bu ko'rsatkichlar pastligicha qolmoqda. Ushbu holat hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda qo'shimcha strategiyalar va chora-tadbirlarni talab etadi.

Uchinchidan, bandlik darajasi bo'yicha umumiy yaxshilanish tendensiyasi mavjud bo'lsa-da, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich hali ham yetarli emas. Bu esa iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni chuqurlashtirishi mumkin.

To'rtinchidan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad darajasidagi o'sish sur'atlari viloyat bo'ylab notekis bo'lib, bu holat iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi xulosalarga asoslanib, quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Hududlarni kompleks rivojlantirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun viloyatning barcha tumanlariga teng investitsiya oqimini taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarur.

Chekka hududlarda iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish uchun maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturlarini kengaytirish kerak.

Aholi bandligini oshirish uchun yangi ishlab chiqarish korxonalarini ochish va mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, shuningdek, mahalliy aholini qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish lozim.

Hududlarning iqtisodiy xavfsizlik darajasini doimiy ravishda monitoring qilish uchun raqamli texnologiyalar asosida integratsiyalashgan tizim yaratish tavsiya etiladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida hududiy rivojlanish siyosatini amalga oshirishda xalqaro tajribalarni muntazam o'rganib borish va ularning eng samarali jihatlarini mahalliy sharoitga moslashtirib qo'llash amaliyotini joriy qilish kerak.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali Namangan viloyatining iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash va hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Economic Forum. (2023). The Global Risks Report 2023. Geneva, Switzerland.
2. World Bank. (2023). Global Economic Prospects Report. Washington, D.C.
3. UNDP. (2022). Regional Human Development Report 2022. New York, USA.
4. European Commission. (2022). EU Cohesion Policy Report. Brussels, Belgium.
5. OECD. (2023). OECD Regional Outlook 2023: Regional Development and Security. Paris, France.
6. National Economic Council. (2022). Economic Stability and Security Index Report. Washington, D.C.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-mart PF-5975-son "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-4776669>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi "Hududiy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi", 2023-yil.
9. Glazyev S. Yu. (2020). Regional Economic Security Management. Moscow: Ekonomika.
10. Afontsev Ye. (2021). Regional Indicators of Economic Security. Economic Policy Journal, 12(4), 45-60.
11. Briguglio L., et al. (2020). Economic Resilience and Stability Indexes for EU Regions. Journal of Economic Studies, 47(6), 1289-1310.
12. Jia X., Li H. (2019). Digital Technologies in Regional Economic Security. Technological Forecasting & Social Change, 144, 35-47.
13. Hanson D., et al. (2021). Regional Economic Risk Management in the USA. Risk Management Journal, 23(1), 56-72.
14. Saidov M. (2022). O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligi: hududiy jihatlar. T.: Akadernashr.
15. Nuraliyev M. (2021). Hududiy investitsiya siyosati va iqtisodiy xavfsizlik. T.: Yangi asr avlodi.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlari standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**